

**XRISTIAN DININING XITOIY JAMIYATI VA IJTIMOIIY-SIYOSIY
HAYOTIGA TA'SIRI**

Xudoyberdiev Akbarjon Alisher o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 2 kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xristian dinining Xitoy jamiyati va ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri haqida so'z yuritilgan. Xitoyda xristianlik tarixining o'rganilishi va G'arb missionerlarining Xitoydagi faoliyati bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar, Evropa va Rossiya tadqiqotchilari orqali yoritilgan bo'lsada, bugungacha o'zining dolzarbligini yo'qotmagan.

Kalit so'zlar: Katolik cherkovi, Protestantlik, Missionerlik, Siyosat, Evangliya, Rubinshteyn, Majusiylik, Siyosiy muammolar, Djozef Edkins, Konfusiychilik, R.S.Maklay.

Abstract. This article talks about the influence of Christianity on Chinese society and social and political life. The study of the history of Christianity in China and the scientific research related to the activities of Western missionaries in China have not lost their relevance even today, although they have been covered by European and Russian researchers.

Key words: Catholic Church, Protestantism, Missionary, Policy Gospel, Rubinstein, Paganism, Political problems, Joseph Edkins, Confucianism, RS Maclay.

Абстракт. В данной статье говорится о влиянии христианства на китайское общество и общественно-политическую жизнь. Изучение истории христианства в Китае и научные исследования, связанные с деятельностью западных миссионеров в Китае, не утратили своей актуальности и сегодня, хотя и освещаются европейскими и российскими исследователями.

Ключевые слова: католическая церковь, протестантизм, миссионерство, политическое евангелие, Рубинштейн, язычество, политические проблемы, Джозеф Эдкинс, конфуцианство, Р. С. Маклай.

XVIII-asrda Rim katolik cherkovini Xitoy madaniyatiga bo'lgan qarashi Rim papasini ta'qiqlari bilan cheklangan bo'lsa-da, XIX-asrda Xitoyga kelgan protestantlar esa Xitoy an'analariga bo'lgan yangi ijobiy munosabat shakllash imkoniyatiga ega edilar. Lekin bu Xitoy va G'arb o'rtasida bo'lgan suhbatning yangi sahifasini ochish imkoniyati amalga oshmaydi. Xristianlikning ilk tarqalish bosqichlaridan protestant missionerlari Xitoy madaniyati bilan qarama-qarshilikni meros qilib olishgandi. Protestantlikning xitoylashtirilish jarayonini tasvirlagan xolda, Dj. Ferbenk uning uchta asosiy bosqichlariga e'tibor qaratadi. Birinchi bosqich, Xitoylik xodimlar xizmatidan foydalanish edi, ikkinchisi bu protestant xristianlikni ifodalaydigan xitoycha terminlarini aniqlash edi. Xristianlikni xitoylashtirish yakuniy bosqichi esa qonuniy yoki bidadga oid nazariyaning rasmiy maqomni qo'lga kiritish bo'lgan. Bu jarayon missionerlikning ilk bosqichlaridanoq Xitoy madaniyatining tanqid qilishi bilan bog'liq bo'lgan. Bunday tanqidlar faqatgina XIX asr oxirlarida mo'tadillashadi. Katoliklarga bo'lgan xush

ko'rmaslikga qaramay, protestant missionerlar xristianlikning Xitoy madaniyatiga moslashuv me'yori haqida bahslashgan Rim-katolik cherkoviga qo'shilishadi. XIX asrning ko'p protestant missionerlari Xitoy an'anaviy madaniyatida Xristianlikga to'g'ri kelmaydigan alternativa ko'rishadi. Ular London missionerlik jamiyatidan bo'lgan Dj. Makgovangga o'xshab: "Iso yoki Konfusiy qaysi biri?" degan savol berishadi. Konfusiyning Xitoy madaniyatiga bo'lgan axamiyatini tan olgan holda, Magkovan Xristian dinini konfusiychilik jamiyatida rivojlanishi umidsiz deb hisoblaydi. Uning fikricha, "Konfusiychilikning imperatordan boshlab har bir fuqarosigacha tarqagan murakkab tartibi sababli", Xristianlik Xitoyda tayanch topishi imkonsiz edi. Faqat birgina podsholik qila olar edi. Evangelie butun dunyo dini bo'lishi kerakligiga ishonsa-da, konfusiychilikning ba'zi bir tomonlaridan biri, u xattoki xalq dini bo'la olmaganini ko'rsatadi. Unda na Tangri, na kelajak, xalos qiluvchi, yurak beradigan mingta savolga javob bor. Bunday din albatta mag'lubiyatga uchraydi..."

Ammo ilk protestant missionerlar ichida konfusiychilikni rad qilganlar ham, bu qadimiy Xitoy an'anasi davomchilariga boshqa bir din davochilaridan ko'ra ko'proq umid qilishar edi. masalan, birinchi protestant missioner R. Morrison u paytda (XIX asr bosh.) qo'llangan konfusiychilik "to'liq" emasligini sezadi. Uning fikri bo'yicha, konfusiychilikning Xitoylik davomchilari Xudo haqida xech narsa bilishmas edi, ularning faqatgina moddiy osmon haqida tasavvurlari bo'lgan. Odob haqida gap ketsa-da, ularga "beshta yaxshi fazilat" ma'lum edi, biroq dastlab gunohdan xabardor emas edi. Keyinchalik, boshqa missionerlar ham bunga qo'shilishgan va "Xudodan Iso orqali olingan bilimlar konfusiychilikning nohaqligiga bardosh berishda zarurligi" haqida da'vo qilishgan.

Ammo Morrisonning izdoshlari ham Xitoy madaniyatining uzoq va sermehnat o'rganish tarafdolari emas edi. Ular tezroq o'z asosiy ishi, xitoyliklarning dinga o'tkazishga kirishishni xohlashar edi. Ta'qiqlarga qaramasdan, missionerlar mamalakat ichida sayohat qilayotganda targ'ibot va diniy adabiyotni tarqatishga harakat qilishar edi. 1830-yillar o'rtasida London missionerlik jamiyati va Xitoy janubidagi hukumat o'rtasida munosabatlar mojaroli edi. Amaldorlar missionerlar axloqini xush ko'rishmas edi, missionerlar esa amaldorlar tomonidan atain ularni axoli oldida kamsitilib, yomon muomalada bo'lganliklarini bilar edilar. Xitoy mansabdorlari missionerlar faoliyatini nazorat qilish uchun ularni kuzatib borishar edi. "Mandarinlarning dimog'dorlik va surbetligi missionerlar fe'l-atvorida o'z javobini topar edi. xristian yuvoshligi va mulohazakorligiga shubha qilish hojati yo'q deb, shu bilan birgalikda ularga hurmatsizlik ko'rsatishlarini xohlashmas edi. Xitoy amaldorlari missionerlar ular oldida tikka turishlarini xohlaganda missionerlar atayin o'tirishar edi. Haqoratga haqorat bilan, hurmatsizlikga hurmatsizlik bilan javob berishar edi. Agarda missionerlar tarqatgan kitoblar yoqilgan bo'lsa, ular imperator sovg'alari bilan ham xuddi shunday qilishar edi.

Targ'ibotchilar bunday siyosat to'g'ri deb hisoblashgan. Aks holda ular kelajakdagi muzokaralarni qiyinlashtirib o'zlarini "vaxshiy" liklarini isbot qilishar va amaldorlarning dimog'dorligini kuchaytirishlarini sezishar edi. Ziddiyat tuyg'usi

missionerlarning ishi to'g'riligiga bo'lgan ishonchini yanada kuchaytirar edi. Ularning fikri bo'yicha, Evangelieni targ'ibot qilish mumkin va muhim, agarda bunga "yovuz kuchlar" qarshilik qilsa, xattoki bu "yovuz kuch" imperator bo'lsa ham. Missionerlar savdo bilan bog'liq ta'qiqlar ularga tegishli emas, chunki ular savdo emas, yaxshilik qilishlari, bundan tashqari, Tangrining qonunlari hamma joyda bir xil va uning istagi bu hamma odamlar bir birini qo'llashlari kerakligini da'vo qilishadi.

Missionerlarning Xitoy tilida va madaniyatida bo'lgan bilimlari yaxshilanishiga qaramay, Xitoy madaniyati ma'naviyatiga berilgan baholari ijobiy emas edi. Bu hodisa sabablari Xitoy jamiyatida dinning salbiy mavqei haqida bo'lib, M. Rubinshteynning tahlilida batafsil yoritilgan: "U Xitoyning har qanday inqirozini diniy institutlari zaifligi bilan bog'lar edi. U xristian dini oldindan belgilab qo'ygan G'arb ustunligini namoyish qilish kerakligini sezar edi. G'arb va uning diniy tartibi kuchliligini ko'rsatish uchun, u Xitoy oliy sivilizasiyaga egaligi haqida bo'lgan afsonani buza olganda, xitoyliklar ularga bo'lgan begona diniy tizimini qabul qilishlari muhimligini isbot qila olar edi. U protestant xristianligiga sharoit yaratar edi. Shundagina Amerika kengashi xabarlari bu dalilni qabul qilib Xitoyga missionerlar jo'natar edi."

XIX asrning birinchi yarmida Amerika Xitoy sivilizasiyasi benuqsonligi haqida bo'lgan afsonaning obro'yini to'kishda boshqa muxtoj emas edilar. Evropada esa aristokrat odamlar XVIII asr ma'rifatchilarining Xitoy tabiiy odobi va benuqson davlat tuzilishiga maftun bo'lganliklarini allaqachon unutib yuborishgan edi.

E'tiqodli katoliklar uchun esa Rim papalarini XVIII asr boshidagi taqiqlari Xitoy dinlari majusiyligini tanqid qilishning shak-shubxasiz asosi edi. Missionerlik tanqid avallo, Shimoliy Amerika va Angliyada keng tarqalgan edi. Missionerlar o'z vatanlariga jo'natgan xat va hisobotlarida, o'z davlatlaridagi jamiyatga mo'ljallangan kitoblarda Xitoy madaniyatining axloqiy va diniy barbodligini namoyish etishga intilishar edi. Shuni eslatib o'tish kerakki, XIX asrda missiyalarning Xitoydagi faoliyati haqidagi kitoblar Xitoy sivilizasiyasi bilan tanishish muhim manbalardan biri edi. Albatta, ziyolilar yanada chuqur va akademik nashriyotlarni ma'qul ko'rishar edi, biroq aholi o'quvchilarining keng davrasi Xitoy madaniyati va dini, ijtimoiy va siyosiy muammolari haqidagi ma'lumotni asosan missionerlar asarlaridan olishar edi. Bu salbiy baholar befarq axolini va xush ko'rmas amaldorlar bilan uchrashuvdan ranjishi va xristian targ'ibotini amalga oshirish muhimligi haqida aks ettirilgan edi. Shu tarzda, ular Xitoy madaniyati negativ siymosini shakllantirishar edi.

Mutloq hukmronlikning o'rnatilishi bilan, Sin sulolasini inqirozi chuqurlashar edi. Bu o'z o'rnida, missionerlarni fikrini yanada yomon tarafga o'zgartirar edi. Xitoy an'anaviy sistemasini buzilishi, chet elliklar aralashgani asorati emas, balki, o'zini ichki zaifligini isbot qilar edi va tezroq xristian qadriyatlarini kiritishga dalil edi. Xitoy madaniyatiga bo'lgan tanqidlar nafaqat G'arbdagi cherkovlarga, balki, xitoyliklarning o'ziga ham qaratilgan edi. 1851-yilda London missionerlik jamiyati

missioneri Djozef Edkins xitoyliklar ichida targ'ibot ishi xaqida mana bu gaplarni yozgan: “Akam-missioner bilan Lunxuaga etib kelganmiz. Har yilgi bahor bayrami tufayli ko'pgina odam to'plangan edi. Biz yanada tushunarli tarzda majusiylikga qarshi bayonot qilmoqchi edik, lekin bu narsa ruhoniylarni juda g'azablantirdi. Keyang-vandagi boshqa bayramga yo'l oldik. Shovqin targ'ibotni imkonsiz qilib qo'ydi. Shu bois biz shahar chetidagi eski ibodatxonaga ketdik. Tez orada asosan aktyorlardan iborat bo'lgan eshituvchilar to'plandi. Ular o'z joyini tark etmasdan bir soatcha bizni gapimizni eshitishdi. Biz ularga ularning hurofotlari noto'g'riligi va konfusiychilik umidsizligi haqida gapirib o'tdik, keyin esa hristianlik salobatidan bir qancha narsa aytib berdik”.

Missionerlar Xitoyning nafaqat dinlarida, balki, ularning atrofida bo'lgan hamma narsada majusiylik, yovuzlik va xurofot ko'rishar edi. 1849-yilda R.S. Maklay shunday yozar edi: “Qo'shni bilan gaplashyotganimizda, hayolimizga uni jirkanchli butga sajda qilishi keladi. Ko'chada tanishimizni uchratsak, demak, u sajdagohdan qaytmoqda. Agar notanish ko'chada bizga salom bersa, bizning tajribamiz unga pul kerakligini aytadi. Do'stimiz bizdan xabar olishga qaror qildi-mi, demak, oldimizda majusiy ortmoqda. Atrofimizga biror narsa o'rganish istagi bilan va o'zimiz o'rgatmoqchi bo'lgan odamlarga mayl bilan qaraymiz-mi? Yolg'izlik bu erda shunaqa-ki, faqatgina Xudoning marhamati uni engillashtira oladi.” Antixristian xurofotlarga to'la bo'lgan Xitoy madaniyatidan qo'rqgan g'arb missionerlari xitoyliklarni nafaqat xristianlikni qabul qilishga majbur qilishar edi, balki, missionerlarga xurofot va majusiylikni eslatadigan xamma narsadan voz kechishlarini talab qilishgan.

Xristianlikning ta'sirini ko'pincha Xitoy va G'arb orasida mavjud bo'lgan farqlarni yuzaki izohlashga olib kelar edi. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmida Xitoy “yolg'onchilar millati”ligi haqidagi bahslar juda keng tarqalgan edi. Mana bu ingliz missioneri Dj. Makgovan XIX asr oxirida konfusiychilik mavzularidan so'zlaydigan, o'ziga to'q, jirkanch o'qimishli xitoylikning siymosidir: “ U donolarning insholaridan shu mavzuga tegishli chiroyli bo'laklarni misol qilib keltiradi. Yaxshi fazilat chiroyi ana shu erda yashaydi. Bu narsa juda jozibador ko'rinib kishida havas uyg'otadi. Marvarid donalari bitta-bitta uning og'zidan tushadi va biz instinktlarga asoslanib “Qanday ajoyib odam!”,- deymiz.

Hech ham! Uning ta'limioti chiroyli gapirishga o'rgatgan, ammo u misol qilib keltirayotgan buyuk odamlarning so'zlari uning yuragiga etmagan. Gap pul topishga kelganda, u har qanday tamoyildan mahrum bo'lgan odamday o'zini tutadi. U ta'limidan faqatgina o'z maqsadlariga erishish uchun foydalanadi. U juda pok va hayot muammolarini echimsiz qoldirishga rozi. Majusiylik odamni mehribon qila olmaydi. Qachonki millat Xudoni yo'qotsa, uni hamma yo'nalishda bo'lgan inqiroz kutadi va Xitoy bunga dalildir”.

Amerikalik missionerlarni xitoylik xristianlarda “ijtimoiy forovonlik haqidagi g'amxo'rlik yo'qligi, o'z oila a'zolarini berkitish uchun haqiqatni rad etishga tayyorliklari, turmush haqida bo'lgan tushunchalariga qoyil qoldirar edi. missionerlar bu madaniy farqlarni sababi majusiylik ta'siri deb bilishar va butun

xitoy qadriyatlar sistemasiga urish e'lon qilishar edi. Chet elliklarning ustunlik tuyg'usi osonlikcha xitoyliklar rad qilgan irqiy ustunlik tuyg'usiga aylanar edi. Boshqa tarafdin, Richard Xitoy san'ati va buddizmga qarshi bo'lgan XIX asr oxiri boshqa chet el yorqin namoyondalariga nisbatan mustaqil edi. U Din asarlari bir-biriga konflikt holatda emas, balki bir-birini to'ldiradi, deb o'ylagan. Diniy sohasida xitoyliklar uchun zid bo'lgan dunyoning gunohga botishidan qochishga harakat qilgan va bu yo'nalishda o'z maslakdoshlarini topgan. 1870 yil oxirida protestant misioneri Devid Xill T.Richardga quyidagilarni aytgan:

1880 yillar boshida Shanisidagi ocharchilikdan keyin g'arbiy sivilizasiya Xitoy sivilizasiyasini ustunligi Xudoning tabiatning o'zgarishlaridagi o'rni va tabiat qonunlarini inson uchun xizmat qilishini kerakligini xulosa qildi. Odam atoni allohga bo'ysunishi hamma narsadan foydalanish imkonini berdi. Ilmiy qonunlar insonga xizmat qilishda foydalaniladi. Agarda men, olim va amaldorlarga ma'ruzalar o'qiy olganimda edi, men ularga xudo kuchini insonlarga xizmat qilishni isbotlab berar edim. Richard diqqat bilan Xitoy mumtoz adabiyotini o'rgandi va buddizmning asosiy manbai deb "Olmos sutrasi" ni tavsiya qildi. Xitoylik do'sti kichik 2 tomlik qo'lda yozilgan sutra nusxasini sovg'a qildi va undan bu darslik sifatida 1 soatdan foydalandi va ulardan mumtoz matnlarni ko'chirib oldi. 1884 yilda zo'r kitobga duch keldi va unda buddizmning mafkuraga ta'sir qilish sirlarini o'rgandi. Bu Sintu maktabining muayyan matni "Ishonchning uyg'onishi" edi, uni Richard 1891 yilda tarjima qildi. Bu o'rganishlarining asosida xristian tabiatining borligidan Richard hayratda edi.

Xitoy buddizmi interpretasiyasidagi fikrdoshi deb, Richard missioner va olim Artur Loyd deb bilardi. 1911 yilda "Yaponiyaning ishonch mabudi" Loyd o'limidan keyin chop etilgan kitobida o'quvchilarga xristian va buddizm maktablarining parallelligini ko'rsatdi. Richard ayniqsa uning maslahatlarini inobatga olib, unga aytdi. Men sen bilan boraman, Shakuyamuni o'zi aytgandek, biz birga uning oldiga boramiz. E.Gordonning Yaponiyada o'tkazilgan ishlariga ham ahamiyat berdi. Siandagi haykal tekshiruvlarida yapon diniy marosimlarining xristian ritualiga o'xshashligi va ularni Yaponiyaga Xitoy nesterianlari ta'kidladi, Richard xristian va buddizmning asosi bitta ekanligini ta'kidladi va bu, balki, Bobildan kelgan, deb hisoblardi. Bobil madaniyati o'z navbatida Hindiston, Eron, Isroil, Misr, Gresiya kabi davlatlar bilan chambarchas bog'liq edi. Richard o'zining tekshiruv ishlariga asoslanib, xristian va buddizmdagi o'xshashliklarni topdi: appokalipsisdagi taxt atrofidagi "4 ta hayvon", Budda "Qudratli tabib", "Shakyamuna atrofidagi 12 ta o'quvchi", buddizmdagi cho'qintirish marosimi, ibodatxonadagi xizmat unga katolik messasini eslatardi.

Adabiyotlar

1. Arthur W. Hummel . Eminent Chinese of the Ching Period, (1644-1912). Global Oriental. 2010.
2. Austin A. Saving China: Canadian Missionaries in the Middle Kingdom, 1888–1959. Toionto, 1986.

3. Berthrong J. All Under Heaven. Transforming Paradigms in Confucian–Christian Dialogue, N. Y.,
4. Dmitriev S.V., Kuzimin S.L. Imperiya Sin kak Kitay: anatomiya istoricheskogo mifa // Vostok (Oriens), № 1, 2014 – S.
5. Dmitriev S.V., Kuzimin S.L. Chto takoe Kitay? Sredinnoe gosudarstvo v istoricheskom mife i realinoy politike // Vostok (Oriens), № 3
6. Dubrovskaya D.V. Missiya iezuitov v Kitae. Matteo Richchi i drugie (1552 - 1775 gg. RAN. M .2001